

Tasdiqlayman
Bosh Direktor
Andrzej Malinowski
2024

“EURO BOOM”
Aksiyasining o‘tkazilish qoidalari

Ushbu Aksiya Beeline Uzbekistan abonentlari xavfiga asoslanmagan va faqat abonentlarni rag‘batlantirish, ularning sonini saqlab qolish, yangi foydalanuvchilarni jalg qilish va MChJ “Unitel”ning raqobatbardosh imidjini yaratish uchun mo‘ljallangan.

Aksiya o‘tkazish qoidalari: “EURO BOOM” (keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb ataladi) aksiya o‘tkazish tartibini belgilaydi: “EURO BOOM” (keyingi o‘rinlarda “Aksiya” deb ataladi), sovrinlar o‘ynashda ishtirok etish shartlari (keyingi o‘rinlarda “O‘yin” deb ataladi), shuningdek sovrinlar, ularni g‘oliblarga taqdim etish tartibi va shartlari. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Koxinur ko‘chasi, 1/1 – uy (keyingi o‘rinlarda “Hamkor” deb yuritiladi) manzilida joylashgan MCHJ “BBK TASHKENT LIMITED” bilan birgalikda o‘tkaziladi.

Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

- **Abonent** – oldindan to‘lov tizimining uyali aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha kompaniya bilan shartnoma tuzgan jismoniy shaxs;
- **Abonent raqami** – Abonent uskunasini boshqa qurilmalar bilan aloqasi paytida telekommunikatsiya tarmoqlarida identifikasiya qilib, xizmat ko‘rsatish uchun Abonentga shartnoma asosida ajratiladigan raqam.
- **Kompaniya/Operator** – “Beeline” savdo belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi va Aksiya tashkilotchisi bo‘lgan MChJ “Unitel”;
- **G‘olib** – tasdiqlangan sovrinlardan birini yutib olgan Aksiya ishtirokchisi;
- **Ishtirokchi** – ushbu Aksiya qoidalariiga muvofiq Aksiyada qatnashish huquqiga ega bo‘lgan Abonent.
- **Kompaniyaning rasmiy sayti** - Kompaniyaning rasmiy veb-sayti: www.beeline.uz.
- **Imkoniyat** - Abonentning aksiya doirasida bitta qimmatbaho sovrinni yutib olish imkoniyati.
- **MNP (Mobile Number Portability)** - bu Abonentga bir uyali aloqa operatoridan boshqasiga o‘tishda o‘z mobil telefon raqamini saqlab qolish imkonini beruvchi jarayondir.
- **Sertifikat** – G‘olibga Operator tomonidan belgilab qo‘yilgan sayyohlik agentligi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi yozma sertifikat, jumladan: ikki tomonlama havo qatnovi, mamlakatda bo‘lish vaqtida mehmonxonada joylashish (nonushta), transfer aeroporti - mehmonxona - aeroport, tibbiy sug‘urta, shuningdek, Operator tomonidan viza to‘lovlarini qoplash.
- **Hisobot davri** - 1 (bir) kalendar haftasi.

Aksiya o‘tkazilish muddati:

Aksiya boshlanishi: 04.03.2024

Aksiya tugashi: 28.04.2024 (shu jumladan).

O‘yinlar har hafta 4.2.2-bandga muvofiq o‘tkaziladi.

Aksianing amal qilish hududi: O‘zbekiston Respublikasi.

G‘oliblarni taqdirlash joyi: Jonli efir Facebook, Instagram va Youtube ijtimoiy tarmoqlaridagi Beeline Uzbekistan sahifasida, hamda Beeline TV ilovasida.

I. Aksiya ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar

1.1. Aksiyada quyidagi talablarga javob beradigan Abonentlar ishtirok etishlari mumkin:

- Abonent 18 yoshga to‘lgan jismoniy shaxs, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi.
- G‘olibni aniqlash davrida abonent raqami faol holatda bo‘lishi kerak.
- Ushbu Qoidalarning 3-qismida nazarda tutilgan talablarni bajargan Abonentlar.

1.2. Aksiyada quyidagilar qatnashish va/yoki sovrin olish huquqiga ega emas:

- Ushbu Qoidalarning 1.1-bandida belgilangan talablarga javob bermaydigan Abonentlar;
- Aksiya davomida kompaniya bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari;
- Operatorning affillangan shaxslari, shuningdek aksiya o‘tkazish mobaynida operatorning affillangan shaxslari bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;
- Kompaniyaning ishonchli vakillari (dilerlari), shuningdek Kompaniyaning ishonchli vakillari va ularning yaqin qarindoshlari bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan jismoniy shaxslar.

II. Sovrin jamg‘armasi

2.1. Aksianing sovrin jamg‘armasi Operator va Hamkorning hisobidan tashkil topgan sovrinlardan iborat.

2.2. Operator hisobidan tashkil topgan Aksianing sovrin jamg‘armasi:

- 2024-yilda Germaniyada bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha Yevropa championati finaliga ikki kishilik sayohat uchun 1(bir) dona sertifikat.
- 2024-yilda Germaniyada bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha Yevropa championati yarim finaliga bir kishilik sayohat uchun 8(sakkiz) dona sertifikat.
- O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi jami 760 000 000 so‘m (yetti yuz oltmish million so‘m) miqdoridagi pul mablag‘lari, ya’ni 100 000 000 (yuz million) so‘mdan 2 (ikki)ta sovrin va 10 000 000 so‘mdan (o‘n million) 56 (ellik olti)ta sovrin.
- Muayyan hududning shaxsiy ofislarida sotilishi mumkin bo‘lgan pullik toifa raqamlari, shu jumladan, 1 500 000 (bir million besh yuz ming) so‘mgacha - 56 (ellik olti) dona.
- Rag‘batlantiruvchi mukofot - barcha yo‘nalishlar uchun 30 kunlik 1 TB (1024 GB) internet-paketi. Ushbu paketning egasi bo‘lish uchun, ishtirokchining so‘nggi to‘rtta raqami Yevropa championatiga sayohat safarini yutib olgan ishtirokchi yoki ma’lum bir davr uchun pul mukofotlari g‘olibi deb topilgan Abonent raqamining so‘nggi to‘rtta raqamiga to‘g‘ri kelishi lozim.

2.3. Hamkor hisobidan tashkil topgan Aksianing sovrin jamg‘armasi:

2.3.1. 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa championati finaliga chiptalar – 2(ikki) dona.

2.3.2. 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa championatining yarim finaliga chiptalari – 8(sakkiz) dona.

2.3.3. Smartfonlar soni bo‘yicha:

- Vivo X100 smartfoni – 5 (besh) dona.
- Vivo V30 smartfoni - 5 (besh) dona.
- Vivo Y36 smartfoni – 30 (o‘ttiz) dona.
- Vivo Y17s smartfoni (4/128) – 40 (qirq) dona.

2.4. Aksiya doirasida sertifikatlar, chiptalar, smartfonlar, pullik toifadagi raqamlar va internet-paketlarni pul ekvivalentiga almashtirish mumkin emas.

2.5. Pul sovrini g‘olibi pulni naqd pulsiz shaklda O‘zbekiston Respublikasining istalgan bankida g‘olib nomiga ochilgan plastik kartaga o‘tkazish yo‘li bilan oladi.

2.6. Viza to‘lovlari uchun kompensatsiya Operator tomonidan bir kishi uchun 1 500 000 (bir million besh yuz ming) so‘m ajratilishini o‘z ichiga oladi. Pul naqd pulsiz shaklda ajratiladi va O‘zbekiston Respublikasining istalgan bankida G‘olib nomiga ochilgan plastik kartaga o‘tkaziladi. Ajratilgan mablag‘lar G‘olibning Shengen vizasini olishda viza yig‘imlari uchun qilgan xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan.

III. Aksiyada ishtirok etish va uni o‘tkazish shartlari

3.1. Aksiya ishtirokchilari:

- aksiya davomida Abonent raqamining asosiy balansini kamida 40 000 so‘m miqdorida to‘ldirgan oldindan to‘lov tizimining amaldagi Abonentlari;
- aksiya davomida Operator tarmog‘iga ulangan yangi Abonentlar, shu jumladan boshqa uyali aloqa operatoridan o‘z raqami bilan Operatorga o‘tgan Abonentlar (MNP – Mobile Number Portability);
- aksiya davomida quyidagi 30 kunlik internet-paketlardan birini sotib olgan Kompaniya Abonentlari:
50 000 so‘mlik 10 GB internet-paketi,
65 000 so‘mlik 20 GB internet-paketi,
75 000 so‘mlik 30 GB internet-paketi,

90 000 so‘mlik 50 GB internet-paketi,
120 000 so‘mlik 75 GB internet-paketi,
130 000 so‘mlik 100 GB internet-paketi,
150 000 so‘mlik 150 GB internet-paketi;
- aksiya davomida yangi Vivo smartfonini faollashtirgan Kompaniya Abonentlari.

3.2. Haftalik o‘yin ishtirokchilari ro‘yxati har bir Hisobot davrida abonent raqami balansini to‘ldirish, Kompaniya tarmog‘iga ulanish, Internet-paketni xarid qilish, Vivo smartfonini faollashtirish sanasiga muvofiq shakllantiriladi.

3.3. Ishtirokchi Abonent raqami balansini to‘ldirgan mablag‘ barcha aloqa xizmatlari uchun ishlatalishi mumkin.

3.4. Sovrirlarni yutish ehtimoli quyidagicha hisoblanadi:

- Kompaniya tarmog‘iga yangi ulanish yoki boshqa operatordan Kompaniyaga o‘tish uchun 1(bir) Imkoniyat beriladi;
- Vivo yangi smartfonini aksiya davomida faollashtirish uchun 10 (o‘n) ta Imkoniyat beriladi;
- 3.1-bandda ko‘rsatilgan har bir xarid qilingan internet-paket uchun 1 Imkoniyat beriladi;
- Beepul yoki Beeline Uzbekistan ilovalaridan tashqari har qanday usulda bir martalik 40 000 so‘mga balansni to‘ldirganda 1 ta Imkoniyat beriladi. 40 000 so‘mdan ortiq miqdorda to‘ldirilganda shunga yarasha hisoblanadi.
- Beepul yoki Beeline Uzbekistan ilovalari orqali bir martalik 40 000 so‘mga balansni to‘ldirganda - 2 ta Imkoniyat beriladi. 40 000 so‘mdan ortig‘iga balansni to‘ldirganda shunga yarasha hisoblanadi.

Misol: Abonent balansni Beepul yoki Beeline Uzbekistan ilovalaridan tashqari har qanday usulda 130 000 so‘mlik bir martalik miqdorda balansini to‘ldirdi – shunday holda, u 3 ta Imkoniyatga ega bo‘ladi. Abonent Beepul yoki Beeline Uzbekistan orqali balansni bir martalik 130 000 so‘mga to‘ldirganda - uning 6 ta Imkoniyati bo‘ladi.

3.5. Haftalik o‘yinda Abonentning to‘plangan Imkoniyatlari tizimda Imkoniyatlar berilgan Abonent raqami ko‘rinishida ko‘rsatiladi. Abonent raqami Aksiya davomida necha marotaba Imkoniyatlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, shuncha marotaba Aksiya ishtirokchilari ro‘yxatida chiqadi.

3.6. Yakuniy o‘yinda har bir Aksiya ishtirokchisi aksianing butun o‘yin davomida qancha Imkoniyatga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, yutish uchun 1 (bitta) Imkoniyatga egadir.

3.7. Vivo smartfonini faollashtirish Abonent tomonidan abonent nomiga rasmiylashtirilgan Operatorning amaldagi SIM-kartasini smartfonga joylashtirish va quyidagilardan birini bajarish orqali amalga oshiriladi: SMS yuborish, internetdan foydalanish, chiquvchi qo‘ng‘iroq (4G-dagi qo‘ng‘iroqlardan tashqari). Imkoniyat Operator tarmog‘ida paydo bo‘lgan va yangi smartfonda yuqorida harakatlardan birini amalga oshirgan birinchi raqamga beriladi. Muayyan smartfonni faollashtirish imkoniyati, qurilmadagi IMEI sloti sonidan qat‘i nazar, bir marta beriladi. Imkoniyatlar faqat rasmiy sotuvchidan sotib olingan Vivo smartfoni faollashtirilganda beriladi. Rasmiy sotuvchilar haqida ma‘lumotni saytda ko‘rsatilgan kontaktlarga murojaat qilib olishingiz mumkin <https://www.vivo.com/uz>

3.8. Aksiya doirasidagi imkoniyatlar ushbu Aksianing 3.1-bandida ko‘rsatilgan Internet-to‘plamlarni har qanday usulda xarid qilishda belgilanadi: ussd, Kompaniyaning rasmiy veb-sayti, Beeline Uzbekistan ilovasi, Beepul ilovasi va h.k. Ushbu Qoidalarning 3.1-bandida ko‘rsatilgan, avtomatik yangilash funksiyasiga ega Internet-paketlar uchun Imkoniyat berilmaydi.

3.9. Aksiya doirasidagi Imkoniyatlar 3.1-bandda ko‘rsatilgan Aksiya va yarmarkalar doirasida chegirma bilan sotib olingan internet-paketlar uchun taqdim etilmaydi.

3.10. Agar yangi ulanish kunida Abonent raqamini o‘zgartirgan bo‘lsa, unda yangi ulanish uchun Imkoniyat oxirgi raqamga tayinlanadi. Agar raqamni almashtirish ulanishdan keyingi kun yoki undan keyin sodir bo‘lsa, u holda Abonent oldingi raqamda to‘plangan Imkoniyatlarini yo‘qotadi.

3.11. Agar Aksiyada ishtirok etish shartlari bajarilgandan so‘ng va ma’lum bir vaqt sovrinlari o‘ynalishidan oldin Abonent “Raqamni almashtirish” xizmatidan foydalansa, u holda oldingi raqamda to‘plangan imkoniyatlar kuyadi va yangi raqamga o‘tkazilmaydi.

3.12. “Ishonchli to‘lov” va “Hisobimni to‘ldirib qo‘y” xizmatlaridan foydalangan holda balansni to‘ldirish Abonentga aksiyada ishtirok etish Imkoniyatini bermaydi.

3.13. To‘ldirish va keyinchalik uni bekor qilish, hamda mablag‘larni qaytarish paytida bunday to‘ldirish uchun taqdim etilgan Imkoniyatlar bekor qilinadi.

IV. Aksiya g‘oliblarini aniqlash tartibi

4.1. Sovrin egalari random.org sayti orqali tasodifiy raqamlar algoritmi yordamida ommaviy ravishda Beeline TV ilovasida, hamda Facebook, Instagram va Youtube’ning Beeline Uzbekistan sahifalarida jonli efirda aniqlanadi. Sayt random.org, sovrinlar egalarini aniqlash uchun ishlataladigan haqiqiy tasodifiy sonlarni yaratish, aksiya boshlanishidan oldin g‘oliblarni oldindan belgilashga imkon beradigan protseduralar va algoritmlarni o‘z ichiga olmaydi.

4.2. Sovrinlar o‘ynalish tartibi

4.2.1. Sovrinlar o‘yini haftalik va final o‘yinlariga bo‘linadi. Haftalik o‘yin ma’lum bir hisobot davridan so‘ng, 3.1-bandda ko‘rsatilgan Aksiya shartlarini ma’lum bir hisobot davri mobaynida bajargan Aksiya ishtirokchilari o‘rtasida o‘tkaziladi. Yakuniy o‘yin Aksiya davri o‘tganidan so‘ng, barcha Ishtirokchilar o‘rtasida o‘tkaziladi.

4.2.2. Sovrinlar o‘ynalishi quyidagi jadvallarga muvofiq o‘tkaziladi:

Haftalik o‘yinlar

Efir sanalari	Davr ishtirokchilari	O‘ynaladigan sovrinlar
13.03.2024	04.03.2024 10.03.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
20.03.2024	11.03.2024 17.03.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
27.03.2024	18.03.2024 24.03.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
03.04.2024	25.03.2024 31.03.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
10.04.2024	01.04.2024 07.04.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
17.04.2024	08.04.2024 14.04.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
24.04.2024	15.04.2024 21.04.2024	– 2024-yilgi futbol bo‘yicha Yevropa chempionatining yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so‘m - 7 dona, qiymati 1,5 mln so‘mgacha bo‘lgan nominali pullik bo‘lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.

01.05.2024	22.04.2024 28.04.2024	-	2024-yilgi futbol bo'yicha Yevropa championating yarim finaliga tur - 1 dona, pul mukofoti 10 mln so'm - 7 dona, qiymati 1,5 mln so'mgacha bo'lgan nominali pullik bo'lgan raqamlar - 7 dona, Vivo smartfoni - 10 dona.
------------	--------------------------	---	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Final o'yini

Efir sanasi	Davr ishtirokchilari	O'ynaladigan sovrinlar
01.05.2024	04.03.2024 28.04.2024	- 2024-yilgi futbol bo'yicha Yevropa championati finaliga ikki kishilik tur – 1 dona, pul mukofoti 100 million so'm – 2 dona.

4.3. Kompaniya ma'lumotlar bazasida Aksiya ishtirokchilarining barcha Abonent raqamlari qayd etiladi. Ro'yxatdan o'tish, balansni to'ldirish, Abonent raqamini Kompaniya tarmog'iga ulash sanasi, 30 kunlik internet-paketlarni xarid qilish, Vivo smartfonlarini faollashtirish va Imkoniyatlar soni to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

4.4. G'oliblarni aniqlash uchun Kompaniya 3 (uch) kishidan iborat komissiya tuzadi. Komissiya quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

- ushbu Qoidalarning III "Aksiyaning ishtirok etish va o'tkazilish shartlari" bo'limiga muvofiq aksiya G'oliblарини jonli efirda to'g'ri aniqlash bo'yicha nazoratni ta'minlash;
- asosiy sovrinlar egalarining Abonent raqamlari ko'rsatilgan holda efir vaqtida bajarilgan harakatlar to'g'risidagi bayonnomani rasmiylashtirish va imzolash.

4.5. Kompanianing kompyuter dasturi (ishtirokchilarning elektron ma'lumotlar bazasi) sovrinlarni qo'lgan kiritgan ishtirokchini oldindan aniqlash yoki shartlash imkonini beradigan protseduralar va algoritmlarni o'z ichiga olmaydi.

4.6. Aksiya g'oliblari g'olib deb topilgan Abonent raqamiga qo'ng'iroq yoki SMS-xabar orqali yutganlari haqida xabardor qilinadi.

4.7. G'oliblarni aniqlash natijalari kompaniya veb-saytida G'oliblar aniqlangan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Abonent raqamining dastlabki ikki raqamisiz G'olibning Abonent raqami ko'rsatilgan holda joylashtiriladi.

4.8. Kompaniya O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablaridan kelib chiqqan holda Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.9. Kompaniya kompanianing rasmiy veb-saytida tegishli ma'lumotlarni majburiy joylashtirish bilan Aksiya qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.10. Aksiya haqida ma'lumot 06033 raqami va kompanianing rasmiy veb-saytida mavjud. Kompaniya tegishli ma'lumotlarni Facebook, Instagram va Youtube ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.11. Agar sovrinlar o'ynalganda G'olib raqamini almashtirgan Abonent bo'lsa, unda bunday Ishtirokchi sovrin olish huquqini yo'qotadi.

4.12. Muayyan Hisobot davri uchun olingan Imkoniyatlar o'sha davr oxirida nolga qaytariladi va keyingi Hisobot davriga o'tkazilmaydi va shunga mos ravishda keyingi hisobot davri uchun haftalik sovrinlar o'yinida qatnashmaydi.

V. Sovrinlarni olish shartlari

5.1. Sertifikatlarni olish uchun Aksiya doirasida G‘olib deb topilgan ishtirokchi Operatorga 7 (yetti) ish kuni ichida, smartfon va futbol o‘yiniga chiptalarni olish uchun esa Hamkorga quyidagi hujjatlar va ma’lumotlarni asl nusxalarini taqdim etadi:

- G‘olibning pasporti yoki ID-kartasi;
- Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida JShShIR raqami bo‘lmagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport bo‘limi) JShShIR ni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma.
- G‘olib chet el fuqarosi bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi davlat Soliq Qo‘mitasidan rezidentlik to‘g‘risidagi guvohnoma.

5.2. Pul mukofoti yoki viza to‘lovlariini to‘lash uchun kompensatsiya olish uchun aksiya doirasida G‘olib deb topilgan ishtirokchi 7 (yetti) ish kuni ichida Operatorga quyidagi hujjatlar va ma’lumotlarning asl nusxalarini taqdim etadi:

- G‘olibning pasporti yoki ID-kartasi;
- Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida JShShIR raqami bo‘lmagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport bo‘limi) JShShIR ni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma.
- G‘olibga berilgan plastik kartaning to‘liq tafsilotlarini (plastik karta raqami, MFO, STIR, tranzit hisobvarag‘i va bank filiali yoki filialining nomi) ko‘rsatgan holda bankdan ma’lumotnama;
- G‘olib chet el fuqarosi bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasidan rezidentlik to‘g‘risidagi guvohnoma.

5.3. Agar G‘olib biron-bir sababga ko‘ra Sovrinni topshirish jarayonida shaxsan ishtirok eta olmasa, Sovrinni olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etish uchun boshqa shaxsga (ishonchli vakilga) tegishli ishonchnoma rasmiylashtirib berishi mumkin.

Bu holda, ishonchli vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- Ishonchli vakilning pasporti/ ID-kartasi;
- G‘olibning pasporti/ID kartasi nusxasi;
- Sovrinni olish va sovrinni olish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni imzolash huquqini beruvchi notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
- Jismoniy shaxs-G‘olibga STIR berilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnama (agar mavjud bo‘lsa);
- Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida JShShIR raqami bo‘lmagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport bo‘limi) JShShIR ni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma.
- G‘olib chet el fuqarosi bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasidan rezidentlik to‘g‘risidagi guvohnoma.

Ushbu Qoidalarning 5.1 va 5.2-bandlarida belgilangan talablar 1 TB (1024 GB) internet-to‘plami sovrini G‘olibiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

5.4. Kompaniya 2024-yil 1-iyungacha Yevropa championatiga yo‘llanma uchun Sertifikatlar va boshqa sovrinlarni G‘olib tomonidan 5.1 va 5.2-bandlarga muvofiq barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) bank kuni ichida berish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.5. Sovrin faqat Abonent raqami ro‘yxatdan o‘tgan, jonli efir vaqtida aksiya G‘olibi bo‘lgan jismoniy shaxsga beriladi.

5.6. Pul mukofotlarini o‘tkazish G‘oliblarning shaxsiy bank hisob raqamiga barcha zarur hujjatlar Kompaniya tomonidan olingan va tekshirilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) bank kuni ichida amalga oshiriladi. Kompaniya sovrinlarni muddatidan oldin berish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.7. Sovrinni olishda G‘olib barcha kerakli hujjatlarni imzolashi shart, unda G‘olibning shaxsiy ma’lumotlari va sovrin to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlar, shu jumladan uning QQS bilan qiymati ko‘rsatiladi.

5.8. Sovrin G'olibga barcha kerakli hujjatlarni imzolagandan so'ng beriladi.

5.9. Agar G'olib Toshkent shahrida emas, O'zbekiston Respublikasining boshqa shahrida yashasa, Kompaniya Sovrinni G'olib yashash manziliga yaqin bo'lgan Kompaniya ofisiga yetkazib berish majburiyatini oladi.

5.10. G'olib notarial tasdiqlangan ariza asosida va agar uchinchi shaxsda 5.1 va 5.2 -bandlarga muvofiq barcha zarur hujjatlar bo'lsa, pullik raqamdan tashqari barcha sovrinlarni bir martalik uchinchi shaxsga o'tkazish huquqiga ega.

5.11. Futbol bo'yicha Yevropa championating yarim finaliga sayohat uchun mukofot egasi sertifikatdan (turoperator xizmatlaridan) 2024-yil 9-iyulgacha, futbol bo'yicha Yevropa championati finaliga sayohat uchun mukofot egasi esa 2024-yil 14-iyulgacha barcha kerakli hujjatlarni taqdim etish va imzolashda foydalanishi mumkin. Agar G'olib Sertifikatdan 2024-yil 14-iyulgacha foydalanmasa, Sertifikat amal qilishni to'xtatadi va G'olib Sertifikatdan foydalanish huquqini yo'qotadi.

5.12. Kompaniya quyidagi holatlarda G'olibga Sovrinni berishdan bosh tortish huquqiga ega:

- G'olib Sovrin e'lon qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida Kompaniya bilan bog'lanmaganda;
- G'olib Sovrin e'lon qilingan paytdan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida 5.1. va/yoki 5.2. - bandda ko'rsatilgan kerakli hujjatlarni taqdim etmagan va/yoki taqdim etilgan hujjatlar Aksiya va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob bermaganda;
- G'olib o'z imzosini qo'yishdan va/yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlardan, shu jumladan, zarur hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortganda;
- G'olibga Sovrin e'lon qilingan paytdan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida yutganligi to'g'risida xabar qilishning imkoniyati bo'limganida - g'olibning raqami bloklangan, tarmoqdan tashqarida, Kompaniyaga bog'liq bo'limgan boshqa sabablarga ko'ra g'olib telefonni ko'tarmagan va/yoki aloqaga chiqmagan holatlarda. Shu bilan birga, Kompaniya G'olibni 7 (etti) ish kuni ichida kamida 3 (uch) marta xabardor qilishga urinadi;
- G'olib tomonidan Aksiyada ishtirok etish shartlari buzilishi aniqlanganda.

5.13. Kompaniya sovrinlarni G'oliblarga o'z mablag'laridan berishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda Soliqlar (shu jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, sovrin qiymati summalar) va yig'imlarni mustaqil ravishda to'lanadi.

5.14. Hamkor sovrinlarni G'oliblarga o'z mablag'laridan berishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda Soliqlar (shu jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, sovrin qiymati summalar) va yig'imlarni mustaqil ravishda to'lanadi.

5.15. Rag'batlantirish mukofoti 1 TB (1024 GB) internet-paketi 4.2-bandga muvofiq G'oliblar e'lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Ishtirokchi Abonentlarga ulanadi.

5.16. Operator hisobidan tashkil topgan sovrinlar Operatorning O'zbekiston Respublikasidagi barcha rasmiy ofislarida Operator tomonidan beriladi.

5.17. Hamkor hisobidan tashkil topgan sovrinlar (smartfonlar, futbol o'yiniga chiptalar) Operatorning O'zbekiston Respublikasining quyidagi shaharlaridagi rasmiy ofislarida Hamkor tomonidan beriladi: Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Qarshi, Qo'qon, Navoiy, Namangan, Nukus, Samarqand, Termiz, Farg'ona, Xorazm.

5.18. Hamkor 2024-yil 1-iyulgacha Yevropa championatiga futbol o'yiniga chiptalar berish huquqini o'zida saqlab qoladi, smartfonlar esa 5.1 va/yoki 5.2. bandlarda ko'rsatilgan Qoidalarga muvofiq G'olib tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida.

5.19. Ushbu Qoidalarning 2.2.4-bandida ko‘rsatilgan pullik toifa raqamini olish faqat G‘olib uchun ro‘yxatdan o‘tgan holda yangi ularish yoki joriy raqamni almashtirish shaklida mavjud. G‘olib tomonidan pullik raqamga bo‘lgan huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5.20. Agar tur G‘olibiga Shengen vizasi rad etilsa, u holda yarim final g‘olibi turoperator tomonidan 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘m miqdorida taklif qilingan turlardan birini tanlash huquqiga ega. Final bosqichi G‘olibiga 60 000 000 (oltmis million) so‘mlik turlar taklif qilinadi. G‘olib 2024-yil 14-iyulgacha turdan foydalanishi shart. Agar G‘olib 2024-yil 14-iyulgacha turdan foydalanmasa, u holda turdan foydalanish huquqini yo‘qotadi. Turni almashtirish faqat Shengen vizasi berilmagan taqdirda ruxsat etiladi.

VI. Alohiba qo‘shimchalar

6.1. G‘oliblar biron sababga ko‘ra sovrinlarni olishni talab qilmagan yoki rad etgan taqdirda, Kompaniya Aksiya Sovrindorlari umumiy sonini ham, sovrin jamg‘armasini ham tegishli ravishda kamaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday holda, G‘olibni qayta aniqlash amalga oshirilmaydi.

6.2. Agar G‘olib ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha talab va shartlarga rioya qilmasa, Kompaniya G‘olibga sovrinni taqdim etishni rad etishga haqli.

6.3. Kompaniya quyidagi holatlar uchun javobgar emas:

- Ishtirokchilar Kompaniya saytida joylashtirilgan G‘oliblar ro‘yxati bilan tanishish imkoniyati bo‘lmaganida;
- Sovrirlarni olish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar/hujjatlar ishtirokchilarining aybi bilan yoki boshqa sabablarga ko‘ra topshirilmagan/o‘z vaqtida topshirilmaganida;
- Aksiya shartlarida ko‘zda tutilgan talablarni ishtirokchilar tomonidan bajarilmaganida (o‘z vaqtida bajarilmaganida);
- G‘oliblar sovrinlarga da’vo qilmagan yoki rad etganligi uchun olmaganlarida;
- Aksiya G‘oliblari Hamkorning Sovrirlarni (smartfon, futbol o‘yiniga chipta) o‘zlariga da’vo qilmagan, rad etgan yoki Hamkorning aybi bilan olmaganligi;
- Uchinchi shaxslarning aybi va/yoki fors-major holatlari tufayli G‘oliblarga sovrinlarni topshirish bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning imkon bo‘lmagan holatlarida;
- G‘olib Operatorning aybisiz sertifikatdan foydalana ololmagan holatlarda, shu jumladan, vakolatli organlarning Aksiya G‘olibiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqishga qo‘yan cheklowlari/taqiqlari, Shengen vizasini berishni rad etishi, uchinchi shaxslarning harakatlari/harakatsizligi.

6.4. Aksiyada ishtirok etib, Ishtirokchi:

- Ushbu Qoidalalar bilan to‘liq tanish va roziligin tasdiqlaydi;
- fotosurat va video suratga olishda ishtirok etishga, shuningdek, operatorning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali G‘olibning suratini yanada oshkor qilish va tarqatishga roziligin tasdiqlaydi;
- Kompaniya tomonidan shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlashga roziligin tasdiqlaydi.

6.5. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi kerak. Agar nizo kelib chiqqan kundan boshlab 60 (oltmis) kalendar kuni ichida tinch yo‘l bilan kelishuvga erishishning imkon bo‘lmasa, nizo O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudida ko‘rib chiqilishi kerak.

6.6. Smartfonda nuqsonlar yoki boshqa zavod nosozliklari aniqlangan taqdirda G‘olib sovg‘a topshirilgan va topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida Hamkorning bosh ofisiga murojaat qilishi shart. Hamkor sovrinni G‘olibga topshirgandan keyin smartfondan

foydalinish va saqlash qoidalari buzilgani yoki uchinchi shaxslarning harakatlari yoki fors-major holatlari natijasida yuz beradigan kamchiliklar uchun javobgar emas.

6.7. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablaridan kelib chiqqan holda Kompaniya Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalar o‘tkazmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi, ushbu shartlarda ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.8. Kompaniya tegishli ma’lumotlarni kompaniyaning rasmiy veb-saytiga joylashtirish sharti bilan Qoidalarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

6.9. Kompaniya istalgan vaqtida Aksiyani to‘xtatish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

6.10. Aksiya haqida ma’lumot kompaniyaning rasmiy veb-saytida mavjud. Kompaniya tegishli ma’lumotlarni Kompaniyaning tanlagan Facebook yoki Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalarida joylashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.